





BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTTI



Haqihin bechtik Byxapkorro roqyapctreho yahnebcentra
Scientific reports of Bukhara State University

5/2024



@buxdu_uz



5/2024

| | | |
|---|---|-----|
| | немецких лексикографических источников | |
| Nigmatova L.Kh. | Linguistic system of lexemes of plant names | 94 |
| Alimova S.S. | Studying nouns in the english language | 98 |
| Khamdamova G.Kh. | Exploring the polysemy of words in proverbs: a linguistic analysis | 103 |
| Abidova Z.X. | Tafakkur fe'llarining o'zbek tili izohli lug'atidagi talqini | 107 |
| Rasulov Z.I., Ahrorova N.A. | O'zbek tili mifologemalarining til va nutqda voqealanish xususiyatlari | 110 |
| Tohirova U.A. | Language and identity in the literature of migration | 115 |
| Toirova G.I., Hamroyeva N.N., Oripova P.V., Quziyeva T.F. | Minnatdorchilik – nutqiy etiket sifatida | 122 |
| Xalikova M.X. | Rus-ingliz tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi | 128 |
| Seyidov R. | Arabic from semantic point of view | 135 |
| Djumabayeva J.Sh., Bekmurodova F.N. | Theoretical basis of pragmatic equivalence in the translation of literary texts | 141 |
| Achilova R.A. | Allusions in the function of quotes, proverbs, sayings and phraseological units | 146 |
| Ahmedov A.R. | O'zbek va tatar tili unli tovushlari | 151 |
| Kurbanazarova N.Sh. | Qo'ng'irot etnonimi etimologiyasiga oid ba'zi mulohazalar | 157 |
| G'aybullayeva N.I. | Lingvokulturologiya ilmiy fan sifatida | 160 |
| Saidov S.S. | Lingvomadaniyatshunoslik va korpus lingvistikasi: sohalararo mushtaraklik | 166 |
| Adizova N.I. | Turizmga oid matnlarda milliy-madaniy birliklar ifodasi (tarixiy manbalar asosida) | 170 |
| Мавлонова Ў.Х. | Инглиз тилида хушмуомалаликнинг pragmalingvistik va социолингвистик категория сифатидаги роли | 174 |
| Hamroyeva M.R. | Antroponomik birliklarning pragmalingvistik xususiyatlari (N.Norqobilov hikoyalari matni asosida) | 180 |

TURIZMGA OID MATNLARDA MILLIY-MADANIY BIRLIKLER IFODASI (Tarixiy manbalar asosida)

Adizova Nilufar Istamovna

Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasasi o'qituvchisi, PhD
nilufar.adizova71@gmail.com

Annotatsiya. Insonning o'y-fikrlari, ruhiyati, ma'naviy olami uning nutqi orqali namoyon bo'ladi. Borliqdag'i har bir narsa, voqe'a-hodisaga munosabatini ham inson faqat nutqi orqaligina ifoda eta oladi. Semantik bilimlar kishiga qandaydir voqe'a yoki narsa haqida muayyan fikrlar, ma'lumotlarni berishi mumkin. Biroq milliy-madaniy jihatlarni anglash uchun faqat shuning o'zигина yetarli bo'lmaydi. Shuni inobatga oлган holda mazkur maqolada tilshunoslikda turizm sohasiga oid ayrim milliy-madaniy birliliklar va matnlarga doir tahlil amalga oshiriladi. Turizmga oid milliy-madaniy birliliklarni o'rganish jarayonida nazariy yondashuvning ahamiyati va tatbiq etilayotgan ma'nosini nutqda qo'llash maqsadga muvofiqligi, ularni alohida tizimga solish masalalari to'g'risida ham fikr boradi.

Kalit so'zlar: turistik matnlar, turistik birliliklar, nutqiy akt, lingvokulturologiya, madaniy obyektlar, turizm, ziyyorat turizmi, sayohat, ichki turizm.

EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL UNITS IN TEXTS ON TOURISM (Based on historical sources)

Abstract. A person's thoughts, psyche, and spiritual world are revealed through his speech. A person can express his reaction to everything in existence and events only through his speech. Semantic knowledge can give a person certain thoughts and information about some event or thing. However, this alone is not enough to understand the national and cultural aspects. Taking this into account, this article analyzes some national-cultural units and texts related to the field of tourism in linguistics. In the process of studying the national-cultural units related to tourism, the importance of the theoretical approach and the appropriateness of using the applied meaning in speech, as well as the issues of their separate system, are discussed.

Key words: touristic texts, touristic units, speech act, linguistic culture, cultural objects, tourism, pilgrimage tourism, travel, domestic tourism.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В ТЕКСТАХ, СВЯЗАННЫХ С ТУРИЗМОМ (На основе исторических источников)

Аннотация. Мысли, психика, духовный мир человека раскрываются через его речь. Свою реакцию на все сущее и события человек может выразить только через речь. Семантические знания могут дать человеку определенные мысли и информацию о каком-то событии или вещи. Однако одного этого недостаточно для понимания национально-культурного аспекта. Учитывая это, в данной статье анализируются некоторые национально-культурные единицы и тексты, относящиеся к сфере туризма в лингвистике. В процессе изучения национально-культурных единиц, связанных с туризмом, обсуждаются важность теоретического подхода и целесообразность использования прикладного значения в речи, а также вопросы их отдельной системы.

Ключевые слова: туристские тексты, туристские единицы, речевой акт, лингвокультура, объекты культуры, туризм, паломнический туризм, путешествие, внутренний туризм.

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi jadal taraqqiy etib borayotgani ma'lum. Uning obyekti til va madaniyatning o'zaro aloqasi jarayonida lisoniy va nutqiy birliliklar ifodasida namoyon bo'ladi. Ular lingvistika, kulturologiya, etnografiya, onomastika, toponimika kabi qator fundamental sohalar kesishmasida o'rganiladi. Zotan, har qanday millatning o'zligi uning tili va madaniyati kesishmasida real ifodasini topadi hamda muayyan bir xalqning azaliy qadriyatlari, an'analari, udumlari, tarixi bilan bog'liq muhim jihatlarni mujassam etishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

LINGUISTICS

Turizm sohasi har bir mamlakat, har bir millatning ma'naviy, madaniy qiyofasini namoyon etish, dunyoga tanitish, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini yuksaltirish uchun muhim omil sifatida eng daromadli soha ekanligi ko'pgina taraqqiyotga erishgan davlatlar misolida o'z isbotini topmoqda. Ular turizmga bo'lgan e'tibor tufayli o'zining iqtisodiy-ijtimoiy ahavolini yaxshilashga erishmoqdalar. Shuning uchun ham bu kabi davlatlar turizm sohasini rivojlantirish orqali mavjud turistik resurslarni asrab-avaylash, ulardan samarali foydalanishga jadal kirishganlariga guvoh bo'lish mumkin. Jumladan, O'zbekiston ham azaldan o'zining go'zal tabiat, qulay iqlim sharoiti, qadimiylari, tarixiy shaharlari, boy madaniyati, yuksak mehmono'stligi, xilma-xil milliy taomlari, mashhur shaxslari, muqaddas qadamjolari, urf-odat va an'analari bilan butun dunyo ahlining diqqat markazida bo'lgan. Malakatimizda keyingi yigirma yillikda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqishga kirishildi. Hozirda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyoohlar soni tubdan oshdi, shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz, milliy madaniyatimiz, shaharlarimiz, tarixiy shaxslarimiz hayoti, ijodi va yashagan joylariga bo'lgan jahon hamjamiyatining qiziqishi, e'tirofi kundankunga ortib bormoqda. Biroq mamlakatimiz turizm salohiyatini yanada taraqqiy ettirish uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlari anchagina. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoro shahri "Ark" qo'rg'oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimotida aytgan fikrlari ham tasdiqlab turibdi: Buxoroning ko'hna va boqiy shahar, deb atalishida katta ma'no bor. Bu yerdagidan qadimiylari obidalar, osori-atiqalar, xalqimizning betakror qadriyatlari, beqiyos an'analari asrlar osha yashab kelmoqda. Chet elliqlarning, tarixshunos va mutaxassislarining ularga qiziqishi doimo yuqori bo'lgan. Bundan unumli foydalanish kerak...

Haqiqatan ham, davlat rahbarimiz ta'kidlaganlaridek, turizmni joylarda turli tur va sohalar asosida rivojlantirish bugun har qachongidan ham muhimdir. Bunga sabab, mamlakatimizda butun dunyo xalqlari orzu qiladigan darajada katta moddiy va ma'naviy imkoniyatlar mavjud. Ulardan bahramand bo'lgan holda barcha moddiy va ma'naviy resurslarimizdan xalq farovonligi yo'lida to'g'ri foydalanish hamda kelgusi avlodlar uchun ham asrab-avaylashga e'tibor qaratish lozim.

Tadqiqot metodi sifatida ushbu maqolada turizmga oid milliy-madaniy birliklar, ba'zi jihatlarning tavsifiyah-tahliliy usulda o'rganishga e'tibor qaratildi. Turizm sohasi insонning turli sohalardagi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, insoniyat borki, uning ko'ngli go'zallikka, ruhi sokinlikka talpinadi. Bunga erishishning eng yaxshi yo'li esa sayohat qilishdir. Sayohat uchun munosib joyni topish, har bir xalqning o'ziga xos milliy qiyofasi – ko'zni quvnatadigan osori atiqalari, tarixning jonli sahifalari bilan yaqindan oshno bo'lish, ularning o'ziga xos kiyim-kechaklari, urf-odat va an'analari, zeb-u ziynatlari-yu milliy taomlarigacha bo'lgan har bir holat, ularni ifoda etuvchi birliklar kishini befarq qoldirmaydi, bitmas-tuganmas huzur, zavq baxsh etadi. Shunga ko'ra, turistik sayohatlar, asosan, ikki maqsad bilan amalga oshiriladi: 1. Insонning o'z ixtiyori bilan sayohatga chiqishida uning ruhan yengillikni his etish, turli joylarni ko'rishga qiziqish, insон qo'li bilan bunyod etilgan go'zallikdan, tabiatning so'lim manzaralaridan zavqlanish. 2. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, mamlakatlar nufuzini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar.

O'zbekiston har bir go'sasi betakror, go'zal yurt. U azal-azaldan o'zining qiyosi yo'q manzaralari, tarixiy shaxslari, me'moriy obidalari, so'lim go'shalari, milliy an'ana va qadriyatlari, har bir hududida o'zgacha tayyorlanadigan rang-barang taomlari va boshqa jihatlari bilan mashhur. Biz biror shaxs, narsa yoki voqe-hodisa haqida ma'lumot berar ekanmiz, avvalo, fikrimizni muayyan matnlar asosida tinglovchiga aniq va ta'sirchan yetkazishga harakat qilamiz. Buning uchun maqsadimizga mos birliklardan foydalanamiz. Shunga ko'ra, turizmga oid matnlarda, asosan, sayohatbop joylar, turli me'moriy obidalari, inshootlar, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, milliy-madaniy o'ziga xosliklar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bular esa bevosita tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos so'z va ifoda birliklari orqali ifoda etiladi.

Tilda o'z ifodasini topgan har qanday birlikning leksik-semantik tahlili bevosita onomastik tahlil bilan ham bog'liqidir. Zotan, leksik semantika *semasiologiya* hamda *onomastika* kabi ikki aspektidan iborat[9, 9]. Semantik (yun. ifodalovchi, bildiruvchi) tahlil til birliklarining ma'nosi (O'TIL, 478) hamda ular bilan bog'liq o'zgarishlarni o'rganishdir.

Natijalar. Mamlakatimizning shonli tarixi, milliy urf-odat va marosimlari, ajdodlarimizning kiyim-kechaklari, qurol-yarog'lari, o'ziga xos taqinchoqlari sayohat qilishni xohlagan har bir kishida qiziqish uyg'otadi. Jumladan, temuriylar davri bilan bog'liq har qanday hodisa e'tiborda. Fikrimizning dalili sifatida tarixiy manbalarga murojaat qilamiz. Masalan, buyuk sohibqiron Amir Temur davrida Samarcand saroylari, saroy odatlari, marosimlari, bog'lari, milliy kiyim-kechaklari, qurol-aslasa-yu zargarlik buyumlari *Ispan elchisi don Ryui Gonsales Klavixo* xotiralarida quyidagi tarzda o'z ifodasini topgan. Muallif temuriylar davrini tasvirlash jarayonida o'sha davrda yashagan shaxslarni tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, sifatlari, yashash tarzi, qurol-yarog'lari, taomlari, atrofidagilar haqida ham batafsil ma'lumot berishga harakat qilgan. Ushbu asarda ipak, duxoba va atlas kiyimlar, bo'rk(bosh kiyim, qalpoq), shokila(bezak sifatida osib qo'yiladigan

taqinchoqlar), *qabo*(oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil kiyim), *noyob toshlar bilan bezatilgan qurollar va kamarlar, xontaxta*(ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta, yog‘och stol), *oltin tovoq, kosa, qadah, kigiz* kabi ko‘plab narsa-buyumlarning nomlari, *to‘y*(uyylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o‘tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi), *mehmondorchilik, me’morlik, o‘zaro hurmat, odob-axloq*(Podshoh birinchi luqmani tanovul qilgach,,), hayot tarzi(*ularning boyliklari, nomdorliklari, bezaklari bu ko‘chma yurtlarda ko‘zga yaqqol ko‘rinadi...*) kabi jihatlar, *palov(osh), lochira, favo(mevali tort)*, *qovurma* va boshqa taom nomlarini ifodalovchi birliklar keltirilgan bo‘lib, ular orqali muayyan davr ko‘z o‘ngimizda gavdalananadi hamda milliy-madaniy mentalitetimizning o‘ziga xos tomonlari namoyon bo‘ladi. Masalan, quyida berilgan matnlar asosida shu kabi jihatlarni kuzatamiz:

Turklar har doim yengil chodirlarda umr kechirganlar, binobarin, ularning boyliklari, nomdorliklari, bezaklari bu ko‘chma yurtlarda ko‘zga yaqqol ko‘rinadi... Temur iqomatgohning haqiqiy ziynat va hashamatini, shaharning shimoliy sharq tarafida bir milcha cho‘zilgan Zarafshon va hisobsiz ariqlar bilan sug‘oriladigan cho‘lda o‘tkazilgan to‘y manzarasini tasvirlash uchun kishi o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi zarur... Go‘zal Konigul cho‘li qisqa bir muddatda o‘zining chodirlari tepasidagi bayroqchalari bepoyon lolazorga o‘xshab, el-ulusi yashnab turgan ajoyib, katta gul bog‘chasiga aylangan edi. Chodirlarning aksariyati doira sifat kigizdan iborat edi... To‘rtburchak shakldagi bu chodirning eni yuz qadam, balandligi uch nayza edi. Ko‘shk shaklidagi o‘rta qismi ko‘k rangli va odam tanasi yo‘g‘onligidagi o‘n ikki dona oltin ustunda turadi...

Temur o‘z saltanat taxtini qanchalik inqiroz va xarobalikka uchragan xonadonlar hamda mamlakatlar zaminiga qurban bo‘lsa, ularning barchasidagi urf-odatlar va marosimlarni o‘z saroyida to‘pladi va taraqqiy ettirdi. Saroy a‘yonlarining ipak, duxoba va atlas kiyimlari arab yoki musulmon rasm-rusumida tikilgan edi.

*Saroydagagi ayollarning libosi, xususan bo‘rk(bosh kiyim, qalpoq), shokila(bezak sifatida osib qo‘yiladigan taqinchoqlar) qadimgi Eron va Xorazm urfiga xos edi. Saroy xonimlari *qabo* (oltin uqa bilan bezatilgan uzun qizil kiyim) kiyar edilar. U kiyimning yoqasi bo‘ynini qisib turadigan, o‘zi yengsiz bo‘lgan, orqa etagi juda uzunligi uchun uni maxsus joriyalar ko‘tarib yurishgan. Ularning soni ba‘zan o‘n besh kishiga yetardi...*

*Qizil movutdan dubulg‘aga o‘xshash *uchli qalpoq* kiyishgan. Qalpoq usti qizil yoqut, zabarjad, durlar bilan bezatilgan, atrofida *tishli qosh* bo‘lib, undan go‘yo oq parlar “to‘kilib” turgan. Bu patlarning ba‘zilari to ko‘zlarigacha tushib yurgan vaqtidagi harakati bilan yuzga o‘zgacha go‘zallik berur edi. Temur saroyidan chetdagi ko‘pgina ayollar ham Kichik Osiyoning juda qimmatli javohiri-yu, Isfahan, Mo‘ton, Ganja, Damashq, Bursa, Venetsiya zargarlarining nafis asarlari bilan o‘zlariga oro bergenlaridek, erkaklar ham noyob toshlar bilan bezatilgan qurollar va kamarlarini ko‘rsatib, ko‘zni qamashtirar edilar.*

*Klavixo chodir ichida ko‘rgan katta bir oltin sandiqni quyidagicha tasvirlaydi: Uning yalpoq qopqog‘i i yashil va ko‘k minoemaldan ishlangan kichik qubbalar, naqadar noyob javohir va injular bilan ziynatlangan...Bu sandiqning yonida balandligi bir metrcha keladigan oltin *xontaxta* bor, uning atrofi javohir bilan bezatilgan, ustida esa ikki metr uzunlikda bir zabarjad bo‘lib, u butun xontaxtani egallagan edi.*

*...Shahzodalarga berilgan har bir narsa katta kumush *tovoqlarda* taqdim etilardi. Xoqonning oila a‘zolari oltin *kosalaridan* foydalanar edilar. ...sharob doimo oltin laganlarga qo‘yilgan tilla *qadahlarda* berilar edi.*

*O‘quvchiga “Ming bir kecha” hikoyalarini eslatadigan bu chodirlarda shohona *mehmondorchilik* va sharobxo‘rlik bo‘lardi.*

*...eng sevimli taomlari – qo‘y go‘shtidan *qovurma*, ot go‘shti, hozirgidek tayyorlanadigan *palov, xamir ovqatlar, favo*(mevali tort) va chuchuk *lochira*(oshirilmagan xamirdan yupqa qilib yoyib, tandirda singgak qilib pishirilgan non) edi. Eng lazzatli ovqat – otning to‘g‘ralgan son go‘shti hisoblanardi. Uni oltin va kumush *laganda* uzatishardi. Ammo usta to‘g‘rovchilar tomonidan to‘g‘ralgan *qovurmalar* charm dasturxonlarga qo‘yilar edi. Podshoh *birinchi luqmani tanovul qilgach*, atrofdagilarga ruxsat berilar edi. To‘g‘ralgan go‘shtidan iborat *osh* nahorga berilar, yoz mavsumida, odatda, ovqat bilan birga qovun va uzum tortilar edi.*

Temur har bir muvaffaqiyatni, har bir sevinchli voqeani bir me’morlik asarini bunyod etish bilan nishonlashga ahd qildi. Shu maqsadda Hindistonning yuzlarcha mohir g‘isht teruvchilarini, Sheroz, Isfahan va Damashqning mashhur ustalarini Movarounnahrga keltirdi, ular go‘zal imoratlar qurdilar...

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, madaniyatni tildan foydalanuvchi kishilar yaratadi. Ba‘zi millatlarda odatiy me’yor, madaniy xususiyatni ifodalovchi etalonlar boshqasi uchun oddiy muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zotan, milliy-madaniy birliklar har bir xalqning milliy qarashlari asosida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va ular mazkur til sohiblarining milliy-madaniy boyligi deb qaraladi.

LINGUISTICS

ADABIYOTLAR:

1. Adizova, Nilufar. "BADIY MATNDA SO 'ZLAR JILOSI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 45.45 (2024).
2. Vamberi Herman. Buxoro tarixi yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990
3. Istamovna, Adizova Nilufar. "Leksik birlklarning milliy o 'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)." Conferences. 2021.
4. Istamovna, Adizova Nilufar. "Eternal Life of Heroes of Uzbek and English Epics." (2023).
5. Istamovna, Adizova Nilufar. "OCCASIONAL DERIVATIVES IN CREATIVE EPICS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.5 (2022): 146-152.
6. Istamovna, A. N. (2021, December). Leksik birlklarning milliy o 'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida). In Conferences.
7. Istamovna, A. N. (2022). The power of creative expression-On the example of Erkin Vakhidovs epics. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 104-112.
8. Adizova, N. (2024). BADIY MATNDA SO 'ZLAR JILOSI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 45(45).
9. Istamovna, A. N. (2022). OCCASIONAL DERIVATIVES IN CREATIVE EPICS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 146-152.
10. Hakimova M. Semasiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2008.